

O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari

2025-yil yanvar-dekabr oylari uchun

- I. O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2026-yilning 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 1 201,6 mingtani, shundan, kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda) soni 493,0 mingtani, YATTlar soni 284,4 mingtani, dehqon xo'jaliklari soni 395,6 mingtani, oilaviy tadbirkorlar 5,6 mingtani, hunarmandlar 22,1 mingtani va import tovarlari sotuvchilar 0,9 mingtani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni

2026-yil 1-yanvar holatiga, birlik

	Jami	shundan:	
		kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)	YATT, dehqon xo'jaliklari, oilaviy tadbirkorlar, hunarmandlar va import tovarlari sotuvchilar ¹
O'zbekiston Respublikasi	1 201 612	492 993	708 619
Qoraqalpog'iston Resp.	56 942	24 466	32 476
Andijon	122 726	29 331	93 395
Buxoro	73 853	30 236	43 617
Jizzax	94 610	22 491	72 119
Qashqadaryo	68 367	37 899	30 468
Navoiy	40 970	21 018	19 952
Namangan	78 263	28 510	49 753
Samarqand	103 852	45 452	58 400
Surxondaryo	107 298	26 910	80 388
Sirdaryo	35 187	13 878	21 309
Toshkent	91 796	46 647	45 149
Farg'ona	93 394	41 870	51 524
Xorazm	91 884	27 746	64 138
Toshkent sh.	142 470	96 539	45 931

¹ Adliya vazirligi ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi

Faoliyat yuritayotgan, yuridik shaxs tashkil etmagan
tadbirkorlik subyektlarining hududlar bo'yicha soni

2026-yil 1-yanvar holatiga, birlikda

	Jami	shundan:				
		Yakka tartib-dagi tadbirkorlik	Dehqon xo'jaliklari	Oilaviy tadbirkorlar	Hunarmandlar	Import tovarlari sotuvchilar
O'zbekiston Respublikasi	708 619	284 440	395 559	5 575	22 117	928
Qoraqalpog'iston Resp.	32 476	17 090	13 915	517	951	3
Andijon	93 395	26 233	64 909	140	2 088	25
Buxoro	43 617	17 401	24 383	336	1 474	23
Jizzax	72 119	27 186	42 205	138	2 564	26
Qashqadaryo	30 468	9 767	19 583	74	1 033	11
Navoiy	19 952	7 650	11 805	44	447	6
Namangan	49 753	19 908	27 379	50	1 990	426
Samarqand	58 400	23 327	33 301	271	1 496	5
Surxondaryo	80 388	29 792	47 930	551	2 090	25
Sirdaryo	21 309	8 025	12 775	40	465	4
Toshkent	45 149	16 710	27 465	120	845	9
Farg'ona	51 524	26 060	22 508	1 115	1 791	50
Xorazm	64 138	14 198	47 370	582	1 977	11
Toshkent sh.	45 931	41 093	31	1 597	2 906	304

2026-yil 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 31,7 birlikni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining (har ming aholiga nisbatan) eng yuqori ko'rsatkichi Jizzax viloyatida 61,0 birlik, Toshkent shahrida 45,3 birlik, Xorazm viloyatida 44,8 birlik va Sirdaryo viloyatida 37,5 birlikni tashkil etdi.

II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2025-yilning yanvar-dekabrida 82,4 mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

2025-yilning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 30 205 ta, sanoatda 10 490 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 9 924 ta hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 7 262 ta tashkil etilgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni](#)


[Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni \(yillik\)](#)

III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

2025-yilning yanvar-dekabrida YAIM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining hajmi 923 514,6 mlrd so'mni tashkil qildi yoki umumiy YAIM hajmidagi ulushi **52,2 %** ni tashkil etdi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining YalMdagi hajmi dinamikasi



2025-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining YalMdagi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng yuqori ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **93,1 %**, qurilishda – **75,6 %**, xizmatlar sohasida – **47,2 %** va sanoatda – **28,5 %** ni tashkil qildi.

2025-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 383 886,1 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi jami hajmdagi ulushi **34,9 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yilning mos davriga nisbatan **114,8 %** ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi dinamikasi




Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari \(xizmatlari\) hajmi](#)

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari \(xizmatlari\)dagi ulushi](#)

2025-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 230 926,9 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari jami hajmdagi ulushi **73,6 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yilning mos davriga nisbatan **112,2 %** ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi dinamikasi




Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi](#)

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami qurilish ishlaridagi ulushi](#)

2025-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 362 910,0 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi **61,4 %** ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yilning mos davriga nisbatan **129,9 %** ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi dinamikasi




Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi](#)

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalardagi ulushi](#)

2025-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 495 445,2 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi **91,9 %** ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yilning mos davriga nisbatan **101,9 %** ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi dinamikasi




Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlarini \(xizmatlarini\) ishlab chiqarish hajmi](#)

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlarini \(xizmatlarini\) ishlab chiqarishdagi ulushi](#)

2025-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 400 503,2 mlrd so'mni yoki jami hajmdagi ulushi **83,0 %** ini tashkil etdi. 2024-yilning mos davriga nisbatan **109,6 %** ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi dinamikasi




Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasi hajmi](#)

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami chakana savdo aylanmasidagi ulushi](#)

2025-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 595 090,5 mlrd so'mni yoki jami hajmdagi ulushi **56,7 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yilning mos davriga nisbatan **114,3 %** ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi dinamikasi




Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlari hajmi](#)

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami ko'rsatilgan xizmatlardagi ulushi](#)

2025-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar eksporti hajmi 12,4 mlrd AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **36,6 %** ini tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar eksporti hajmi dinamikasi




Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot \(ish, xizmat\)lar eksporti hajmi](#)

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot \(ish, xizmat\)lar eksportidagi ulushi](#)

2025-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ish va xizmat)lar importining hajmi 25 390,3 million AQSH dollarini yoki jami importning **53,6 %** ini tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar importi hajmi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot \(ish, xizmat\)lar importi hajmi](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot \(ish, xizmat\)lar importidagi ulushi](#)

IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

2025-yilning yanvar-dekabrida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **52,4 %** ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yilning tegishli davriga nisbatan **107,2 %** ni tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **77,4 %** ni, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **106,8 %** ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi



2025-yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **90,6 %** ni, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **103,3 %** ni tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **95,5 %** ni, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **103,0 %** ni tashkil qildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish hajmi](#)

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yuk tashishdagi ulushi](#)

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk aylanmasi hajmi](#)

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yuk aylanmasidagi ulushi](#)

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining yo'lovchi tashish hajmi](#)

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yo'lovchi tashishdagi ulushi](#)

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining yo'lovchi aylanmasi hajmi](#)

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yo'lovchi aylanmasidagi ulushi](#)

V. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi **bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar**

Kichik tadbirkorlikning tarmoqlar bo'yicha ulushini shakllantirish tarmoq boshqarmalarining tegishli uslubiy nizomlari asosida amalga oshiriladi.

Qoidalarga muvofiq kichik tadbirkorlik rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari yakka tartibdagi tadbirkorlarning faoliyatini hisobga olgan holda, amaldagi narxlarda bajariladi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan hajmlar o'zgarishi narx indeksi o'zgarishlarini inobatga olgan holda hisoblab chiqiladi.

Metama'lumot uchun havola:

[Korxonalar va tashkilotlar soni – metama'lumot](#)

[Kichik biznes ko'rsatkichlari – metama'lumot](#)

[Kichik biznesning tarmoqlar bo'yicha ulushi – metama'lumot](#)

